

Logistika ta'minot zanjirida menejmentning roli

Gulov Muxtor Ochilovich

Qarshi davlat texnika universiteti Biznes va boshqaruv kafedrası dotsenti

Tel: 987771010

Anotatsiya: Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida logistika jarayonlarini optimallashtirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ayniqsa, ta'minot zanjirini samarali boshqarish zamonaviy biznesning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ta'minot zanjiri xom ashyo manbasidan tortib, tayyor mahsulotni yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan murakkab bosqichlarni o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan logistik platformalar axborot oqimining tezligi, aniqligi va tahliliy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Shu bois, zamonaviy raqamli logistik tizimlardan foydalanish ta'minot zanjirining har bir bo'g'inini samarali muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. **Kalit so'zlar:** Logistika, ta'minot zanjiri, Menejment, Raqamli texnologiyalar, Smart shartnomalar, ERP tizimi, Muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi, Iqtisodiy samaradorlik, Operatsion boshqaruv, Innovatsion boshqaruv.


Аннотация: В эпоху стремительного развития цифровых технологий оптимизация логистических процессов в производственной сфере и сфере услуг стала одной из актуальных задач. В частности, эффективное управление цепочками поставок признано одним из основных факторов, определяющих конкурентоспособность современного бизнеса. Цепочка поставок включает в себя сложные этапы от источника сырья до доставки готовой продукции конечному потребителю. Логистические платформы, основанные на цифровых технологиях, отличаются скоростью, точностью и аналитическими возможностями информационного потока. Поэтому использование современных цифровых логистических систем позволяет эффективно координировать каждое звено цепочки поставок.

Ключевые слова: Логистика, Цепочка поставок, Управление, Цифровые технологии, Смарт-контракты, ERP-система, Сбалансированная система показателей, Экономическая эффективность, Операционный менеджмент, Управление инновациями

Abstract: In the current era of rapid development of digital technologies, the optimization of logistics processes in the production and service sectors has become one of the pressing issues. In particular, effective supply chain management is recognized as one of the main factors determining the competitiveness of modern business. The supply chain includes complex stages from the source of raw materials to the delivery of finished products to the final consumer. Logistics platforms based on digital technologies are distinguished by the speed, accuracy and analytical capabilities of information flow. Therefore, the use of modern digital logistics systems serves to effectively coordinate each link in the supply chain.

Keywords: Logistics, Supply Chain, Management, Digital Technologies, Smart Contracts, ERP System, Balanced Scorecard, Economic Efficiency, Operational Management, Innovation Management.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida logistika jarayonlarini optimallashtirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ayniqsa, ta'minot zanjirinisamarali boshqarish zamonaviy biznesning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur zanjir xom ashyo manbasidan tortib, tayyor mahsulotni yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan murakkab bosqichlarni o'z ichiga oladi. An'anaviy logistik tizimlar




ko'plab cheklovlarga ega bo'lgan bir paytda, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan logistik platformalar axborot oqimining tezligi, aniqligi va tahliliy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Shu bois, zamonaviy raqamli logistik tizimlardan foydalanish ta'minot zanjirining har bir bo'g'inini samarali muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada aynan raqamli logistik tizimlarning imkoniyatlari, ularning iqtisodiy samaradorlikka qo'shgan hissasi hamda ta'minot zanjiri boshqaruvidagi o'rni tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'minot zanjiri boshqaruvi (SCM)–bu operatsion samaradorlikka erishish, mijoz ehtiyojini qondirish va strategik maqsadlarga yetishish uchun jarayonlar, resurslar va manfaatdor tomonlarni uyg'unlashtiruvchi tizimli yondashuvdir. U samarali boshqaruvni ta'minlash uchun talabni bashorat qilish, inventarizatsiyani nazorat qilish va favqulodda holatlar rejasini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi[1].

Iqtisodiyot soxasining turli bo'g'inlarida jumladan ta'minot zanjiri yaratishda va uni boshqarishda, logistikada smart shartnoma juda keng imkoniyatlarni ochib berdi. Ta'minot zanjirining har bir bo'g'inlarida shartnomalar tuzish, ularni nazorat qilish, tekshirish, kuzatish, har bir hamkorlar bilan shartnoma va xujjatlarni tuzish, ularni nazorat qilishda bir qancha xatolar, kutishlar, ovoragarchiliklar, qo'shimcha xarajatlar, qo'shimcha ishchi kuchi, uchinchi tomonning aralashuvlari, xujjatlarda xato-kamchiliklar, soxtalashtirishlar, moddiy va moliyaviy aylanmani kechikishi, axborot oqimi sustligi, shartnoma shartlarining bajarilmasligi kabi bir qancha muammolarga duch kelinishi sababli, Ta'minot zanjirida uzulishlar va turli hil muammolar yuzaga kelishini kuzatishimiz mumkin. Agar ta'minot zanjirida smart (aqilli) shartnomalardan keng foydalanilsa, jarayonda sezilarli darajada ijobiy o'zgarishlar bo'ladi. Aqlli shartnomalar mavjud ta'minot zanjiri boshqaruv tizimlari bilan uzluksiz integratsiyalashishi kerak. Ushbu integratsiya API-larni ishlab chiqishni yoki blokchain platformasini, joriy ta'minot zanjiri dasturiy ta'minoti bilan ulash uchun o'rta dastur yechimlaridan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, mavjud ERP tizimi bilan aqlli shartnomalarni integratsiyalash ma'lumotlar almashinuvini avtomatlashtirishi va jarayonlarni soddalashtirishi mumkin. Legitt AI platformasi mavjud tizimlari bilan uzluksiz integratsiyalashib, aqlli shartnomalar joriy jarayonlar bilan uyg'un ishlashini ta'minlaydi. Ushbu integratsiya, uzilishlar xavfini kamaytiradi va aqlli shartnomalardan foydalanishga muammosiz o'tishni ta'minlaydi. Masalan, Legitt AI-ni ERP tizimi bilan integratsiyalash ma'lumotlar almashinuvini avtomatlashtirishi va ish oqimlarini soddalashtirishi mumkin[2]. 1950-yillarga qadar logistikaga harbiy nuqtai nazardan qaralgan. Bu harbiy ob'yektlar, materiallarni xarid qilish, texnik xizmat ko'rsatish va xodimlarni tashish bilan bog'liq edi. Garchi bu vaqtga qadar bir nechta mualliflar inventarizatsiya xarajatlari bilan transport xarajatlari kabi bir xarajatni boshqasiga almashtirish haqida fikr bildirib boshlagan bo'lsa-da va firma uchun to'g'ri tovarlarni to'g'ri vaqtda maqbul joyga yetkazib berishning afzalliklarini muhokama qilgan bo'lsa-da, hozirgi vaqtda logistika bilan bog'liq faoliyatlar atrofida turli darajadagi xizmatlar soni oshgan.

Umumiy xarajat yondashuvi doirasida transport, inventar nazorati, omborxona va ob'yektning joylashuvi kabi faoliyatlar logistikaning asosiy faoliyat turlaridandir. Asosiy e'tibor firma tovarlarining tashqariga harakatiga qaratildi va kiruvchi harakatlar bilan juda kam shug'ullandi. 1964-yilda jismoniy taqsimot doirasi kengaytirildi (Heskett va boshq., 1964-y.) jismoniy ta'minotni o'z ichiga qamrab oldi va biznes logistikasi deb nomlanadi. Biznes logistikasining tavsiflovchi nomidan foydalanish nafaqat bu nomni harbiy logistikadan ajratib oldi, balki biznesda logistika faoliyatiga e'tibor qaratdi. Xarid qilish dastlab sotib olish faoliyati deb hisoblangan bo'lsa-da, jismoniy faoliyatga tanish bo'lgan ko'plab tadbirlarni qamrab olish uchun ko'lamni kengaytirishga harakat qilindi.

Jismoniy taqsimot, logistikani o'rganish va amaliyot 1960–1970-yillarda paydo bo'ldi.



Logistika xarajatlari yuqori edi. Milliy miqyosda AQShda logistika xarajatlari yalpi milliy mahsulotning 15 foizini tashkil etishi taxmin qilingan (Heskett va boshq., 1973-y.). Xuddi shunday, boshqa xalqlarning jismoniy tarqatish xarajatlari ham yuqori ekanligi aniqlandi. Masalan, Buyuk Britaniyada ular savdoning 16 foizini (Merfi, 1972-y.), Yaponiyada sotuvning 26,5 foizini (Kobayashi, 1973-y.), Avstraliyada esa 14,1 foizini (Stefenson, 1975-y.) va hozirgi holatga ko'ra sotishning 10 foizini tashkil etdi. 1991-yilda Xitoyda ular YaIMning 24 foizini tashkil etdi. Individual firma darajasida ular sotishning 32 foizini tashkil qilishi mumkin (LaLonde va Zinzer, 1976-y.). Marketing va ishlab chiqarish tahlilning nisbatan yetuk sohalari bo'lganligi sababli, jismoniy taqsimot va logistika boshqaruv e'tibori uchun navbatdagi aniq sohalar edi[3].

Iqtisodiy rivojlanishning G'arbdagi andozalariga ko'ra, "logistika" "marketing" va "menejment"dan ajralib chiqib, alohida ilmiy yo'nalish olishi uchun qariyb yarim asr talab etilgan edi. Logistika tizimi boshqarish vazifalari bilan uzviy bog'liq. Lekin logistika tizimiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan vazifalardan biri - marketing siyosati va taktikasi. Logistika tizimining servis chegaralarini marketing talablari aniqlaydi.


Marketing taktikasi bevosita logistikaning xarajat ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Ishlab chiqarishning assortiment bo'yicha ixtisoslashishi marketing yordamida sezilarli darajada rivojlanadi.

Mahsulot assortimenti qancha ko'p bo'lsa, ishlab chiqarishning har bir doirasi, buyurtmalar bilan ishlash, zahiralarni nazorat qilish va boshqarish vazifalari murakkablashib ketadi. Mahsulotlar assortimenti taqsimlash muammolarini hisobga olgan holda aniqlanadi. Masalan, mahsulotning asosiy modelini texnologik davr qo'shimcha xarajatlari hisobiga kamaytirish jarayonida o'zgartirish mumkin. Bu holda ishlab chiqarish uchun kerakli bo'lgan xom ashyo, materiallar va komplektasiya qismlari assortimenti kamayadi.

Lekin, ko'pincha mahsulotlar faqat marketing talablariga asoslanib ishlab chiqariladi. Unda ko'p hollarda tabiiy taqsimlanish bahosiga qanday ta'sir qilinishi hisobga olinmay, mahsulotlar o'zgarishiga olib keladi.

Mahsulotning yangi turini ishlab chiqarishga joriy qilish, odatda, tabiiy taqsimlanish jarayonida kutilmagan xarajatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, avval ishlatilmagan yangi xomashyo turlariga ehtiyoj paydo bo'lishi mumkin. Hattoki, faqat o'rami o'zgargan mahsulot ta'minot doirasi uchun yangi assortiment birligi deb hisoblanadi. Lekin, shuni aytib o'tish kerakki, xar bir assortimentning o'zgarishi xarajatlarning o'sishiga olib kelavermaydi. Ayrim hollarda ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi ortishi, mehnatni tashkil qilishining yaxshilanishi mumkin, bular orqali anchagina mablag' va mehnat tejallishi mumkin. Assortimentning kengayishini rejalashtirish, zahiralarni boshqarish, xarajatlarni kamaytirish doiralarida korxonalar oldiga qo'yilgan vazifalarni murakkablashtiradi[4].

Logistika faoliyatining turli ko'rsatkichlaridan foydalanish samarasi korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli, 1920 yillarda taklif qilingan DyuPon modeli yordamida amalga oshiriladigan biznes rentabelligini an'anaviy miqdoriy baholash. (ingl. The DuPont System of Analysis, natijada investisiyalar rentabelligi ko'rsatkichi bo'lgan DyuPon formulasi, ROI) yoki uning yakuniy ko'rsatkichi - kapital rentabelligi (ROI) bilan kengaytirilgan variantlari, logistika qarorlarining korxona samaradorligiga ta'sirini hisobga olish bir qator mualliflar tomonidan o'zgartirilgan. [Dibskaya va boshq., 2017; Lukinsky va boshqalar, 2016]. Logistika korxonalarining funksional imkoniyatlarining murakkablashishi, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifatining kengayishi bilan korxonalarining xarajatlari va samaradorligini baholash modellari va kontsepsiyalari 70 yillarda rivojlangan. Mualliflar o'zlarining ilmiy ishlarida nafaqat moliyaviy va operasion samaradorlik ko'rsatkichlarini, balki pulsiz ko'rsatkichlarni ham



birlashtirish zarurligini aks ettira boshlaganlar. [Kerr., 1975]. Moliyaviy istiqbolni, moliyaviy bo‘lmagan istiqbol (mijoz, ichki biznes, innovasiya va o‘rganish) bilan qanday qilib yagona samaradorlik ko‘rsatkichlari kartasiga birlashtirish g‘oyasini ilgari surgan amerikalik tadqiqotchilar R.S. Kaplan va D.P. Norton [1992, 2003] yondashuvni 90 yillarda taklif qilgan. Mualliflar tomonidan taklif etilgan muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi (MKT)ni istiqbolli baholash (moliya, mijozlar, ichki biznes jarayonlari, o‘qitish va rivojlantirish) bilan to‘ldirishiga qaramay, ushbu konsepsiya kompaniyalar faoliyatini va yetkazib berish samaradorligini baholash usuliga o‘xshaydi, chunki rasmiylashtirish strategik, taktik va operasion uchta darajada amalga oshiriladi. Bu barcha ko‘rsatkichlarning bir xil ahamiyatini anglatadi, buni konsepsiyada ishlatiladigan “muvozanatli” so‘zi tasdiqlaydi.

Uning ishlatilishi kompaniyalarga moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlarni kiritish orqali o‘lchov tizimlarini kengaytirishga imkon berdi, natijada boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot bazasini kengaytirishga yordam berdi. Ammo bu yondashuvning yetarlicha mukammalligiga qaramay, mualliflar uni o‘zgartirish uchun o‘z tadqiqotlarini davom ettirdilar. Xususan, muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi (MKT) tarkibiga qo‘shilgan iqtisodiy qiymat ko‘rsatkichini kiritish tavsiya etildi (ing. iqtisodiy qo‘shilgan qiymat, IQK), bu sof foyda va uni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan kompaniya kapitalining qiymati o‘rtasidagi farq sifatida hisoblangan [Atkinson i Enshteyn, 2000]. Uning asosiy qo‘llanma sifatida Moliya istiqboliga kiritilishi muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi (MKT) ko‘rsatkichlarini maqsadli tizimga olib kelish imkonini berdi[5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmanova D.N., Zoirov A.B., Jalolov A.I. Ta‘minot zanjirida boshqaruvni tashkil etish // Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. –2024. –No4 (oktyabr–dekabr).
2. Legittai.com c Implementing Smart Contracts in Supply Chain Management.
3. **“Logistika rivojlanishi va ta‘minot zanjiri boshqaruvi”** — umumiy nazariy tahlil (InLibrary).
4. TAIROVA M.M., ABDULLOEVI A.J. LOGISTIKA O‘QUV QO‘LLANMA “Durdoni” nashriyoti Buxoro-2020.
5. M. Burikhodjaeva, Sh.R. Sharapova. IMPROVING THE SUPPLY CHAIN IN LOGISTICS.(Yetkazib berishlar zanjirlarini boshqarish va logistika.) The Peerian Journal (2024). №33 / 37–42st. Retrieved from.
6. “Raqamli iqtisodiyotning yuksalishi va milliy iqtisodiyotlarga ta‘siri: aqsh va xitoy tajribalarining tahlili” Gulov Muxtor Ochilovich
7. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda real sektorda raqamlashtirishning o‘rni” Gulov Muxtor Ochilovich